



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinoz Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahoza Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model.....	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
“Sab'ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	

KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARNING ESHITUV- NUTQIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA KORREKSION-PEDAGOGIK ISH

Nartayeva Shahnoza Yulchibayevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Mamarajabova Zulfiya Narboyevna

P.f.d. professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'xlear implant o'rnatilgan bolalarda eshituv va nutqiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan korreksion-pedagogik ishning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, eshituv-nutqiy faoliyatni oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati, asosiy tamoyillari va samarali usullari tahlil qilingan. Ko'xlear implantatsiya texnologiyasining eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta'siri, har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus pedagogik yondashuv zaruriyatini dolzarb masala sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, psixolingvistika, defektologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan eshitish qobiliyati tiklangan bolalarning idrok va kommunikativ ko'nikmalarining shakllanish jarayoni o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ko'xlear implant, eshituv-nutqiy rivojlanish, differensial yondashuv, korreksion pedagogika, logopedik ish, maxsus ta'lim, reabilitatsiya.

Abstract: This article examines the content of correctional-pedagogical work aimed at developing hearing and speech activity in children with cochlear implants. It analyzes the importance, fundamental principles, and effective methods of a differential approach to improving auditory-speech performance. The positive impact of cochlear implantation technology on the speech development of children with hearing impairments highlights the need for a special pedagogical approach that considers each child's individual characteristics. Additionally, from the perspectives of psycholinguistics, defectology and pedagogy, the article explores the process of forming cognitive and communicative skills in children whose hearing has been restored.

Key words: cochlear implant, auditory-speech development, differential approach, correctional pedagogy, speech therapy, special education, rehabilitation.

Аннотация: В статье раскрывается содержание коррекционно-педагогической работы, направленной на развитие слуха и речевой деятельности у детей с кохлеарными имплантами. Анализируются значение, основные принципы и эффективные методы дифференцированного подхода в совершенствовании слухоречевой активности. Положительное влияние технологии кохлеарной имплантации на речевое развитие детей с нарушением слуха подчёркивает необходимость специального педагогического подхода, учитывающего индивидуальные особенности каждого ребёнка. Также изучается процесс формирования когнитивных и коммуникативных навыков детей с восстановленным слухом с точки зрения психолингвистики, дефектологии и педагогики.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, слухоречевое развитие, дифференцированный подход, коррекционная педагогика, логопедия, специальное образование, реабилитация.

KIRISH

Bugungi kunda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning reabilitatsiyasi jarayonida ko'xlear implantatsiya usuli keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiya eshituv analizatorining funksiyasini sun'iy yo'l bilan tiklashga imkon beradi va bola nutqiy faoliyatini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq implantatsiyadan so'ng bola tabiiy yo'l bilan to'liq eshituv va nutq ko'nikmalarini hosil qilolmaydi. Shu bois, maxsus korreksion-pedagogik yondashuv, ayniqsa differensial asosda tashkil etilgan mashg'ulotlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning reabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasi jarayonida zamonaviy tibbiy va pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ko'xlear implantatsiya



texnologiyasi eshituv funksiyasini sun'iy yo'l bilan tiklash imkonini beruvchi innovatsion usul sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiya eshituv analizatorining buzilgan funksiyalarini qisman tiklash, tovushni qabul qilish va uni markaziy nerv tizimiga uzatish imkoniyatini yaratadi. Shu orqali bola atrof-muhit tovushlarini eshita boshlaydi va nutq faoliyatining shakllanishi uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Biroq implantatsiya jarrohlik amaliyoti bolaning tabiiy eshituv tizimini to'liq tiklamaydi. Shu sababli, operatsiyadan keyingi davrda maxsus korreksion–pedagogik rehabilitatsiya muhim o'rin tutadi. Bu jarayon bolada eshituv tajribasini rivojlantirish, nutqiy idrokni shakllantirish va muloqot kompetensiyalarini bosqichma-bosqich mustahkamlashga qaratiladi. Ayniqsa, differensial yondashuv asosidagi korreksion mashg'ulotlar tizimi bu jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

Koxlear implantli bolalarda eshituv va nutqiy faoliyatni shakllantirish, ularning muloqot va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishdan iborat. Bu jarayon bolaning shaxsiy imkoniyatlari va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda olib boriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Koxlear implantli bolalarda eshituv va nutqiy faoliyatning shakllanishi surdopedagogika, defektologiya va logopediya fanlarida keng o'rganilgan. Xaydarova M.X. o'zining *Surdopedagogika asoslari* (2021) asarida eshituv nuqsoni bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan pedagogik yordamning tamoyillarini ochib berib, koxlear implantatsiya jarayonida eshituv idrokini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Abdullaeva E.O.ning *Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ish usullari* (2020) nomli ishida esa fonematik eshituvni shakllantirish, artikulyatsion mashqlar va eshituv differensiasiyasi bo'yicha amaliy metodlar bayon qilinadi. Bu tadqiqotlar implantdan foydalanayotgan bolalarda eshituv–nutqiy faoliyatning tabiiy shakllanishi uchun individuallashtirilgan yondashuvning muhimligini asoslaydi.

Rus tadqiqotchilari tomonidan ham koxlear implantli bolalarning rivojlanish dinamikasi keng yoritilgan. Nechiporenko L.V.ning *Logopedicheskaya rabota s detmi s kokhlearnym implantom* (2018) asarida implantdan keyingi nutqiy rehabilitatsiya bosqichlari, grammatik strukturalarni shakllantirish va muloqotni rivojlantirishning samarali metodlari bayon etilgan. Grinina I.N.ning *Rehabilitatsiya detey posle kokhlearnoy implantatsii* (2019) tadqiqotida ko'rish, taktil va kinestetik analizatorlarning eshituvni kompensatsiya qilishdagi roli ilmiy asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi me'yoriy hujjatlari (2023) esa maxsus ta'lim jarayonida multimodal yondashuv, oilaviy hamkorlik va individual rehabilitatsiya dasturlarining qo'llanilishini belgilab, amaliy metodikani normativ jihatdan mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy rivojlanishini o'rganish uchun kuzatish, pedagogik diagnostika, logopedik tekshiruv hamda ota-onalar va mutaxassislar bilan suhbat usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar eshituv differensiasiyasi, fonematik eshituv, talaffuz va muloqot ko'nikmalarining holatini aniqlash orqali to'plandi. Olingan natijalar taqqoslash, sifat tahlili va individual rivojlanish dinamikasini aniqlash usullari yordamida qayta ishlanib, differensial yondashuvning samaradorligi ilmiy asosda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi – eshituv va nutqiy faoliyatni shakllantirish, bolada muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy muhitga moslashuv darajasini oshirishdan iborat. Ushbu jarayon har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlari, yosh xususiyatlari, psixofizologik rivojlanish darajasi va implantdan foydalanish tajribasiga qarab individuallashtirilgan tarzda tashkil etiladi.

Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion–pedagogik ishning asosiy mazmuni – ularning eshituv va nutqiy faoliyatini shakllantirish, shuningdek, kommunikativ ehtiyojlarini qondirish orqali ijtimoiy integratsiyaga tayyorlashdan iboratdir. Bu faoliyat kompleks xarakterga ega bo'lib, unda logopedik, psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar o'zaro uzviy bog'lanadi. Korreksion ishning asosiy vazifalari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Eshituv faoliyatini tiklash va rivojlantirish
2. Nutqiy (fonematik) eshituvni shakllantirish
3. Tovush talaffuzi, artikulyatsiya va grammatik tuzilmani rivojlantirish
4. Leksik boylikni kengaytirish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish
5. Ota-onalar ishtirokida pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish

Koxlear implantatsiyadan so'ng bola uchun eshituv tizimi qayta shakllanish bosqichiga kiradi. Shu sababli birlamchi vazifa – eshituv faoliyatini qayta tiklash, eshitilgan tovushlarni farqlash, aniqlash va ularga javob qaytarish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Eshituv idrokini rivojlantirish mashg'ulotlari jarayonida bola atrof-dagi tovush manbalarini ajrata olishi, nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni farqlashi, tovush tembri, balandligi, davomiyligi kabi parametrlarga e'tibor qaratishni o'rganadi. Shu tariqa bola asta-sekin eshitishning fiziologik darajasidan nutqiy idrok darajasiga ko'tariladi.

Bu bosqichda mashg'ulotlar asosan o'yin shaklida (“Tingla va top”, “Tovush qayerdan chiqmoqda?”, “Tovushni eshit va nomini ayt”) o'tkaziladi, bu esa bolada motivatsiyani oshiradi va eshituv idrokining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Korreksion ishning muhim yo'nalishlaridan biri – fonematik eshituvni shakllantirish, ya'ni bolaning nutq tovushlarini eshitish, farqlash va ularni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Fonematik eshituv – bu nutqning asosiy akustik asosidir; u tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni tahlil qilish va o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois pedagogik mashg'ulotlar davomida bolalar nutq tovushlarini bir-biridan farqlash, tovush ketma-ketligini eslab qolish, so'z ichidagi tovushlarni aniqlash va ularni talaffuz qilish mashqlarini bajaradilar.

Masalan, “b” va “p”, “k” va “g” tovushlarini farqlashga oid mashqlar, shuningdek, tovushlarni so'zning boshida, o'rtasida va oxirida ajratish orqali fonematik eshituvni chuqurlashtirish amalga oshiriladi. Bu jarayon tovushni idrok qilishdan boshlab, uni semantik jihatdan anglashgacha bo'lgan ketma-ketlikni o'z ichiga oladi.

Koxlear implantli bolalarda tovush talaffuzi, artikulyatsion harakatlar va nutq apparatining koordinatsiyasi ko'pincha yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli, logopedik mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri artikulyatsion motorikani faollashtirish hamda tovush talaffuzini to'g'rilashdan iborat. Maxsus artikulyatsion gimnastikalar, og'iz mushaklarini bo'shashtirish mashqlari, logoritmik o'yinlar, nafas mashqlari nutqning akustik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, bolalarda nutqning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda so'z turkumlari, gap tuzilishi, fe'llarning zamon shakllari, kelishik qo'shimchalari kabi grammatik kategoriyalarni o'rganish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bolalar o'z fikrlarini grammatik jihatdan to'liq va izchil bayon etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Koxlear implantli bolalar bilan ishlashda nutqiy lug'atni boyitish eng muhim komponentlardan biridir. Bola atrof-muhitdagi predmet va hodisalarning nomlarini bilishi, ularni to'g'ri qo'llay olishi, ularning ma'nolarini farqlashi lozim. Shu maqsadda mashg'ulotlarda vizual materiallar (rasmlar, predmetlar, piktogrammalar)dan keng foydalaniladi.

Bundan tashqari, dialogik va monologik nutqni rivojlantirish ham korreksion ishning muhim vazifasidir. Bola o'z fikrini og'zaki ifoda etish, savol–javob shaklida muloqotga kirishish, suhbatni davom ettirish ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Bu jarayonda o'qituvchi va bola o'rtasidagi kommunikativ aloqaning tabiiyligi va ijobiy emotsional muhiti alohida ahamiyat kasb etadi.

Korreksion ishning samaradorligi ko'p jihatdan oilaviy hamkorlik darajasiga bog'liq. Ota-onalar bolani eshituv va nutqiy rivojlantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi zarur. Shu maqsadda pedagoglar ota-onalar bilan muntazam maslahatlar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazib, ularni logopedik mashqlarni uy sharoitida to'g'ri bajarishga o'rgatadilar.

Oilaviy muhitda bolaning nutqini rivojlantirish uchun tilga boy muhit yaratish, kundalik suhbatlarga jalb etish, eshituvga yo'naltirilgan o'yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu esa maktabgacha va maktab davridagi eshituv–nutqiy faoliyatni yanada barqaror rivojlantiradi.

Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion–pedagogik ishlar samaradorligi, avvalo, unga asos bo'luvchi tamoyillarga qat'iy rioya etishga bog'liqdir. Bunday tamoyillar nafaqat ta'lim jarayonining umumiy metodologik asosini, balki maxsus pedagogikaning individuallashtirilgan yondashuvlarini ham o'zida mujassam etadi. Quyida ushbu tamoyillar batafsil yoritiladi.

Koxlear implantli bolalar bir xil rivojlanish sur'atiga ega bo'lmaydilar, chunki ularning eshituv darajasi, implantatsiya vaqti, nutqiy tajribasi hamda umumiy intellektual rivojlanish ko'rsatkichlari turlicha bo'ladi. Shu bois har bir bolaga individual reabilitatsion dastur tuzish zarur. Ushbu tamoyil asosida logoped, surdopedagog va psixolog birgalikda bolaning rivojlanish ko'rsatkichlarini baholab, mashg'ulotlarning mazmuni va usullarini moslashtiradilar. Natijada har bir bola o'zining shaxsiy imkoniyatlariga mos holda eshitish va nutq faoliyatini bosqichma-bosqich egallab boradi.

Korreksion ish jarayoni muntazam, izchil va o'zaro bog'liq bosqichlarda olib borilishi lozim. Mashg'ulotlar oddiy tovushlarni eshitish va farqlashdan boshlab, murakkab nutq birliklarini – so'z, so'z birikmasi, gap va matn darajasidagi muloqot faoliyatiga o'tish tamoyiliga asoslanadi. Bu esa bolaning eshituv tizimi va nutq apparatini bosqichma-bosqich moslashtirishga yordam beradi. Tizimlilik, shuningdek, eshitish, talaffuz, fonematik eshituv va muloqot ko'nikmalarining o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

Eshituv va nutqiy faoliyat bir-biridan ajralmas jarayon sifatida qaraladi. Koxlear implant yordamida eshituv signallarini qabul qilgan bola bu ma'lumotni nutqiy faoliyatga aylantirish uchun doimiy mashq va integratsion



yondashuvga muhtoj. Shuning uchun har bir mashg'ulotda eshitish faoliyati bilan bir qatorda nutqiy reaksiyani shakllantirish ham amalga oshiriladi. Masalan, bola tovushni eshitib, uni aniqlaydi, farqlaydi va so'ng uni talaffuz qiladi. Bunday yondashuv fonematik idrok va nutq motorikasining o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

Koxlear implantli bolalar uchun eshitish kanali to'liq darajada shakllanmagani sababli boshqa analizatorlarni – ko'ruv, taktil, kinestetik va harakat analizatorlarini ham faol jalb etish zarur. Multimodal yondashuv orqali bola tovushni nafaqat eshituv orqali, balki vizual, taktil va motorli idrok orqali ham o'zlashtiradi. Bu, o'z navbatida, idrok jarayonlarini mustahkamlaydi, eshituv differensiasiyasini tezlashtiradi va nutqiy faoliyatni barqaror shakllantirishga yordam beradi.

Koxlear implantli bolalarda muloqotga kirishish istagini uyg'otish va ularni faol ishtirok etishga undash korreksion ishning muhim jihatlardan biridir. Bolaning o'z eshituv imkoniyatini ijobiy his etishi, atrof bilan muloqotda bo'lishdan zavq olishi ta'lim jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Shu sababli, logopedik mashg'ulotlar o'yin elementlari, musiqiy va ritmik faoliyat, rag'batlantiruvchi baholash usullari bilan boyitiladi.

Koxlear implantli bolaning rehabilitatsiyasi faqat mutaxassislar faoliyatiga tayanmasligi kerak. Oilaviy muhit bolaning eshituv va nutqiy faoliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois ota-onalar maxsus pedagoglar bilan muntazam hamkorlikda bo'lishlari, uy sharoitida eshituv va nutq mashqlarini davom ettirishlari lozim. Mutaxassislar ota-onalarga individual ko'rsatmalar beradi, bola bilan muloqot jarayonida to'g'ri pedagogik usullarni qo'llashni o'rgatadi.

Koxlear implantatsiya o'tkazilgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion–pedagogik ishlarning markazida differensial yondashuv tamoyili turadi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, har bir bolaning fiziologik, psixologik va nutqiy rivojlanish xususiyatlari, shuningdek implantatsiya jarayonining vaqti, davomiyligi va samarasi individual tarzda hisobga olinadi. Ya'ni, ta'lim–tarbiyaviy faoliyat “bir xil metod barcha uchun” tamoyiliga emas, balki “har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan individual rivojlantirish strategiyasi” asosida tashkil etiladi.

Differensial yondashuv, avvalo, bolaning eshituv tizimining funksional holatini aniqlashdan boshlanadi. Koxlear implantning texnik imkoniyatlari, bolaning uni qabul qilish darajasi, eshituv xotirasi va fonematik idrok ko'rsatkichlari har tomonlama tahlil qilinadi. Shundan so'ng logoped va surdopedagog tomonidan shaxsiy rivojlantirish dasturi ishlab chiqiladi. Masalan, erta yoshda implantatsiya qilingan bolalarda tabiiy eshituv tajribasini shakllantirishga va nutqni spontan o'zlashtirishga urg'u beriladi. Bunday bolalar bilan ish jarayonida eshituv differensiasiyasini tabiiy nutq muhitida kuchaytirish, ko'proq muloqotga kirishish va faol so'zlashuv mashqlariga e'tibor qaratiladi.

Boshqa tomondan, kechroq implantatsiya qilingan bolalarda eshituv va nutq faoliyati bir-biridan uzilgan holatda bo'ladi. Ular uchun avvalo eshituv differensiasiyasini tiklash, tovushlarni farqlash, eshituv xotirasini mustahkamlash, keyin esa nutqiy faoliyatni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu esa differensial yondashuvning amaliy ifodasidir: har bir bolaning rivojlanish bosqichi va tayyorgarlik darajasiga mos pedagogik yo'nalish tanlanadi.

Differensial yondashuv, shuningdek, bolalarning psixologik holatini, emotsional kayfiyatini va motivatsion ehtiyojlarini ham hisobga oladi. Ba'zi bolalar eshitishdagi yangi tajriba tufayli o'ziga ishonchsizlik yoki xavotir holatini boshdan kechirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda logopedik mashg'ulotlar yumshoq, o'yinli, psixologik qo'llab-quvvatlashga asoslangan shaklda olib borilishi tavsiya etiladi. Shu tarzda differensial yondashuv nafaqat eshituv–nutq faoliyatini, balki bolaning umumiy psixik holatini ham me'yorga keltirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvning ahamiyati shundaki, u koxlear implantli bolalarda rehabilitatsiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan pedagogik asosda tashkil etish imkonini beradi. Har bir bola o'zining tabiiy qobiliyatlari, idrok sur'ati, eshituv moslashuv darajasi va nutqiy faolligiga qarab rivojlanadi. Natijada rehabilitatsion jarayon sun'iy emas, balki tabiiy, tizimli va ijobiy motivatsiyaga asoslangan tarzda kechadi.

Differensial yondashuvning qo'llanilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- bola eshituv va nutq faoliyatini o'zining individual imkoniyatlariga mos tarzda egallaydi;
- nutqiy faoliyatda barqaror rivojlanish va mustaqil so'zlashish ko'nikmalari shakllanadi;
- ijtimoiy muhitga moslashuv, muloqotga kirishish va o'z fikrini ifodalash qobiliyatlari kuchayadi;
- o'qituvchi, bola va oila o'rtasida o'zaro ishonchli hamkorlik vujudga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv bolaning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olib, eshitish va nutq faoliyatini uyg'un rivojlantirishga sharoit yaratadi. Korreksion pedagogik ishning tizimli, izchil va oilaviy hamkorlikka asoslangan tarzda tashkil etilishi esa ijobiy natijalarga olib keladi. Koxlear implantatsiya texnologiyasi

eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning reabilitatsiyasi va nutqiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladigan tizimli, izchil, multimodal va oilaviy hamkorlikka asoslangan ish – eshituv–nutqiy faoliyatni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois koxlear implantli bolalar bilan ishlashda logoped, surdopedagog, psixolog va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xaydarova M.X. Surdopedagogika asoslari. – Toshkent: TDP, 2021.
2. Abdullaeva E.O. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ish usullari. – Samarqand, 2020.
3. Nechiporenko L.V. Logopedicheskaya rabota s detmi s koxlearnym implantom. – Moskva, 2018.
4. Grinina I.N. Reabilitatsiya detey posle koxlearnoy implantatsii. – Sankt-Peterburg, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi me'yoriy hujjatlari, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.